

RAHBARLARNING KASBIY MAS'ULIYATINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL MODELI

L. T. Xudaybergenova

TDIU

mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya

Maqolada oliy ta'lim muassasalari rahbarlarining kasbiy mas'uliyatini rivojlantirishga qaratilgan konseptual model ishlab chiqilgan. Model nazariy tahlil, ekspert so'rovi va muallif tomonidan o'tkazilgan empirik kuzatuvlar asosida shakllantirilgan. Modelning har bir bosqichi kasbiy mas'uliyatning shakllanish mexanizmlarini, rivojlanish bosqichlarini va baholash mezonlarini o'z ichiga oladi. Maqolada modelning struktur-funksional tavsifi, uni amalga oshirish mexanizmlari va sinov natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy mas'uliyat, konseptual model, rahbarlik faoliyati, kasbiy rivojlanish, oliy ta'lim menejmenti, struktur-funksional yondashuv, diagnostik tahlil.

Аннотация

В статье разработана концептуальная модель развития профессиональной ответственности руководителей высших учебных заведений. Модель сформирована на основе теоретического анализа, экспертного опроса и эмпирических наблюдений, проведённых автором. Каждый этап модели включает в себя механизмы формирования профессиональной ответственности, этапы её развития и критерии оценки. В статье представлены структурно-функциональное описание модели, механизмы её реализации и результаты апробации.

Ключевые слова: профессиональная ответственность, концептуальная модель, управленческая деятельность, профессиональное развитие, управление высшим образованием, структурно-функциональный подход, диагностический анализ.

Abstract

This article develops a conceptual model for the professional responsibility of heads of higher education institutions. The model was formulated based on theoretical analysis, an expert survey, and empirical observations conducted by the author. Each stage of the model includes mechanisms for cultivating professional responsibility, the stages of its development, and evaluation criteria. The article presents a structural and functional description of the model, the mechanisms for its implementation, and the results of its approbation.

Keywords: professional responsibility, conceptual model, leadership activity, professional development, higher education management, structural-functional approach, diagnostic analysis.

Kirish. Zamonaviy jamiyatning murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlari rahbarlarning kasbiy mas'uliyatini rivojlantirish masalasini dolzarb mavzuga aylantirmoqda. Rahbarlik faoliyati nafaqat tashkilot yoki jamoaning samaradorligini ta'minlash, balki axloqiy me'yorlar, huquqiy talablar va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillariga qat'iy rioya qilishni ham talab etadi. Bugungi kunda ko'plab tashkilotlarda rahbarlarning qaror qabul qilish jarayonlarida mas'uliyat yetishmasligi, etika normalarining buzilishi, korruptsiya holatlari va insoniy resurslarni samarasiz boshqarish kabi muammolar kuzatilmoqda. Bu holatlar nafaqat tashkiliy samaradorlikka, balki butun jamiyatning ishonch va barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kasbiy mas'uliyat rahbarning o'z vazifalarini bajarishda shaxsiy, huquqiy, axloqiy va ijtimoiy majburiyatlarni uyg'unlashtirish qobiliyatini ifodalaydi. U faqat qonuniy talablarga rioya qilish bilan cheklanmay, balki o'z harakatlarining uzoq muddatli oqibatlarini oldindan ko'ra bilish, jamoa a'zolarining manfaatlarini

hisobga olish va jamiyat oldidagi mas'uliyatni chuqur anglashni ham o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, rahbarlarning kasbiy mas'uliyatini rivojlantirish tizimli yondashuvni, ilmiy asoslangan modellar va amaliy mexanizmlarni talab etadi. Ushbu maqolada rahbarlarning kasbiy mas'uliyatini rivojlantirishning konseptual modeli taklif etiladi. Model rahbarlik faoliyatining asosiy komponentlari shaxsiy kompetensiyalar, axloqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik, ijtimoiy mas'uliyat va o'zini o'zi boshqarish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ochib beradi hamda ularni rivojlantirishning bosqichma-bosqich mexanizmlarini belgilaydi. Modelning asosiy maqsadi – rahbarlarni zamonaviy talablarga mos ravishda tayyorlash, ularning mas'uliyat tuyg'usini chuqurlashtirish va tashkiliy boshqaruv samaradorligini oshirishdan iborat.

Nazariy-metodologik asoslari. Tizimli yondashuv asosida rahbarning kasbiy mas'uliyatini o'zaro bog'liq elementlarning yaxlit tizimi sifatida ko'rib chiqilgan. Tizimli yondashuv rahbar faoliyatining murakkabligini va uning tashqi muhit bilan o'zaro ta'sirini hisobga olish imkonini beradi. **Faoliyat yondashuvi** mas'uliyatni rahbarning professional faoliyati jarayonida shakllanadigan va rivojlanadigan shaxsiy-sifat sifatida tahlil qilish. **Integrativ yondashuv** va **kompetensiyaviy yondashuv** kasbiy mas'uliyatni rahbarning asosiy kompetensiyalaridan biri sifatida belgilash hamda professional jihatlarni birlashtirgan holda rivojlantirish. **Mas'uliyatli rahbarlik** nazariyalari rahbarning axloqiy, ijtimoiy mas'uliyatini o'rganishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Rahbarlarning kasbiy mas'uliyatini rivojlantirish mavzusi zamonaviy boshqaruvshunoslik, psixologiya, pedagogika va axloq falsafasi fanlarida faol o'rganilmoqda. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavzu ikki asosiy yo'nalishda — xorijiy va milliy tadqiqotlarda — rivojlanmoqda. Xorijiy adabiyotlarda rahbarlik mas'uliyati Responsible Leadership tushunchasi doirasida chuqur o'rganilgan. N.M. Pless rahbarning mas'uliyatini reflektiv va integrativ yondashuv asosida ko'rib chiqib, u rahbarning o'z harakatlari va ularning ijtimoiy-oqibatlarini chuqur anglashini ta'kidlaydi[1]. C. Voegtlin rahbar mas'uliyatini uch turga bo'lib, ular asosida yetti xil mas'uliyatli rahbarlik tipologiyasini taklif etgan[2]. D.A. Waldman va B.M. Galvin mas'uliyatli

rahbarlikning ijtimoiy va etik jihatlarini korporativ boshqaruv kontekstida tahlil qilgan. C. Voegtlin rahbar mas'uliyatini uch turga bo'lib, yetti xil mas'uliyatli rahbarlik tipologiyasini ishlab chiqqan[3]. Jim Kouzes va Barry Posnerning "The Leadership Challenge" asarida rahbarning namunali besh amaliyoti mas'uliyatning amaliy ko'rinishi sifatida tavsiflanadi[4]. Shuningdek, R. Boyatzisning kompetensiyaviy modeli va Stephen Coveyning "The 7 Habits of Highly Effective People" asari rahbarning shaxsiy va kasbiy mas'uliyatini rivojlantirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi[5]. Peter Druker rahbarlikni "mas'uliyatli ish" deb ta'riflab, rahbarning natijalar uchun shaxsiy javobgarligini birinchi o'ringa qo'ygan. Zamonaviy tadqiqotlarda rahbarlikni shaxsiy qadriyatlar va professional ko'nikmalar uyg'unligi sifatida tariflanadi. **Milliy va MDH adabiyotlarida** rahbarlarning kasbiy mas'uliyati asosan kompetensiyaviy yondashuv doirasida o'rganilmoqda. M. Kazaxbaeva rahbarning kasbiy faoliyatiga qo'yiladigan zamonaviy talablarni tahlil qilib, mas'uliyatni boshqaruv samaradorligining asosiy omili sifatida belgilaydi[6]. A.I. Avazboevning "Kasbiy pedagogika" asarida o'qituvchi va rahbarning professional burchi va mas'uliyati chuqur yoritilgan[7]. O'zbekiston olimlarining ishlarida Sh. Abdullayeva talqinida rahbarlik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari sifatida ko'rib chiqiladi[8].

Ko'rib chilgan manbalar asosida rahbarlarning kasbiy mas'uliyatini rivojlantirishning konseptual modeli quyidagi komponentlardan iboratligi aniqlandi.

№	Rivojlanish turi	Tarkibiy elementlar	Rivojlantirish mexanizmlari	Baholash ko'rsatkichlari
1	Shaxsiy	Mas'uliyat tuyg'usi	O'zini baholash	Refleksiya darajasi,
2	Axloqiy	Axloqiy normalar, halollik, adolat	Axloqiylik, etikaga amal qilish	Axloqiy qarorlar, ishonch darajasi

3	Huquqiy	Qonunlar, me'yoriy hujjatlar, javobgarlik	Huquqiy savodxonlik kurslari	Huquqiy xatolar soni, qonunga rioya darajasi
4	Ijtimoiy	Ijtimoiy mas'uliyat	Jamoa bilan ishlash,	Jamoa qoniqishi, ijtimoiy ta'sir ko'rsatkichi
5	Integrativ	Barcha bloklarni birlashtirish, strategik fikrlash	Loyihalar, monitoring	Umumiy samaradorlik,

Tadqiqot natijalari davomida rahbarlarning kasbiy mas'uliyatini rivojlantirishning integrativ konseptual modeli ishlab chiqildi va sinovdan o'tkazildi. Model 5 ta shaxsiy, axloqiy, huquqiy, ijtimoiy va integrativ bosqichli mexanizmidan iborat. Ekspert baholash natijalariga ko'ra 150 nafar rahbar va mutaxassislar ishtirokida, taklif etilgan modelning moslik darajasi 87,4% ni tashkil etdi. Modelning integrativ xususiyati rahbarlarning mas'uliyatini kompleks rivojlantirish imkonini berishi qayd etildi. Shaxsiy blok refleksiya va o'zini o'zi boshqarish darajasi 32% ga oshdi. Axloqiy blok bo'yicha axloqiy qarorlar qabul qilish samaradorligi 28%ga yaxshilanganligi kuzatildi. Huquqiy rivojlanish huquqiy savodxonlik va qonunga rioya qilish ko'rsatkichi 41% ga o'sdi. Ijtimoiy rivojlanish jamoa bilan munosabatlar sifati 35% ga yaxshilanganligi aniqlandi. Integratsion rivojlanish umumiy mas'uliyat indeksi 39% ga oshganini kuzatish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqilgan konseptual model rahbarlarning kasbiy mas'uliyatini rivojlantirishda nazariy va amaliy jihatdan samarali vosita ekanligini isbotladi. Modelning asosiy qiymati uning moslashuvchanligi va turli ta'lim sohasida qo'llash imkoniyatida namoyon bo'ladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, rahbarlarning kasbiy mas'uliyatini tizimli rivojlantirish nafaqat shaxsiy va tashkiliy darajada, balki butun jamiyatning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Pless N.M. Responsible Leadership and the Reflective CEO // Journal of Business Ethics, 2021.
2. Voegtlin C. Responsible Leadership Types: Understanding the Variety... 2026.
3. Waldman D.A., Galvin B.M. Alternative Perspectives of Responsible Leadership // Organizational Dynamics, 2008.
4. Kouzes J.M., Posner B.Z. The Leadership Challenge. — 6th ed. — Jossey-Bass, 2017.
5. Stiven R. Kovi. Muvaffaqiyatli insonlarning 7 ko'nikmasi. 2004.
6. Kazaxbaeva M. Rahbarning kasbiy faoliyatiga qo'yiladigan zamonaviy talablar, 2025.
7. Avazboev A.I. Kasbiy pedagogika. — Toshkent, 2021.
8. Abdullayeva Sh.X. Pedagogik diagnostika. — Toshkent, 2019